


**Farg'ona viloyatining
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2018 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11212,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1297,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 37,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 9915,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1037,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 %ga o'sgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Quva, Qo'shtepa, Farg'ona tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`rganilgan yilning mos davriga nisbatan 37,2 %ga o`tdi va 1297,1 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,6 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 9915,3 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,2 %ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Qo'shtepa t (99.9%), Sox' t (99,6%), Furqat t (98,5%) Buvayda t (98,4%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,6% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`ona sh (23,9%), Qo`qon sh (18,1%), shaxarlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

| | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|------------------------------|--|---------------------------------|--|
| Farg'ona viloyati | 1297,13 | 137,2 | 9 915,3 | 102,2 |
| <i>shaharlar</i> | | | | |
| Farg'ona | 2944,0 | 139,0 | 2239,0 | 97,5 |
| Qo`qon | 1600,6 | 206,9 | 1311,6 | 94,5 |
| Quvasoy | 266,5 | 67,1 | 248,5 | 108,4 |
| Marg'ilon | 748,9 | 105,6 | 248,5 | 38,8 |
| <i>tumanlar</i> | | | | |
| Oltiariq | 387,4 | 426,4 | 372,3 | 101,3 |
| Qo`shtepa | 552,6 | 112,5 | 551,8 | 106,2 |
| Bag`dod | 378,5 | 339,3 | 325,5 | 95,3 |
| Buvayda | 403,8 | 629,5 | 397,3 | 103,4 |
| Beshariq | 411,2 | 558,6 | 403,5 | 104,0 |
| Quva | 571,6 | 687,6 | 548,5 | 102,8 |
| Uchko`prik | 417,8 | 295,1 | 411,2 | 105,9 |
| Rishton | 331,4 | 93,5 | 306,5 | 108,5 |
| So`x | 189,6 | 13,0 | 188,8 | 109,1 |
| Toshloq | 276,7 | 78,4 | 255,0 | 109,5 |
| O`zbekiston | 423,4 | 603,7 | 414,7 | 106,0 |
| Farg'ona t | 488,6 | 22,1 | 466,5 | 125,5 |
| Dang`ara | 328,2 | 238,3 | 321,4 | 106,1 |
| Furqat | 197,8 | 320,2 | 194,9 | 101,3 |
| Yozyovon | 293,9 | 117,8 | 282,6 | 101,4 |

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 3 070,5 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Farg'ona (10473,2 ming.so`m), Qo'qon (6477,4 ming. so`m) va Marg'ilon (3260,4 ming.so`m) shaharlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Furqat t (1724,2 ming.so`m), Rishton t (1693,2 ming.so`m) va Toshloq t (1416,6 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------|--|
| Farg'ona viloyati | 3070,5 | 103,6 |
| <i>shaharlar</i> | | |
| Farg'ona | 10473,2 | 103,3 |
| Qo`qon | 6477,4 | 103,6 |
| Quvasoy | 2931,5 | 102,5 |
| Marg'ilon | 3260,4 | 104,2 |
| <i>tumanlar</i> | | |
| Oltiariq | 1890,9 | 102,9 |
| Qo`shtepa | 3006,3 | 104,3 |
| Bag`dod | 1821,7 | 104,1 |
| Buvayda | 1832,9 | 103,0 |
| Beshariq | 1858,9 | 103,9 |
| Quva | 2282,9 | 104,8 |
| Uchko`prik | 1891,4 | 105,0 |
| Rishton | 1693,2 | 105,3 |
| So`x | 2511,7 | 103,9 |
| Toshloq | 1416,6 | 104,3 |
| O`zbekiston | 1831,3 | 106,0 |
| Farg'ona t | 2367,0 | 102,2 |
| Dang'ara | 1955,0 | 105,5 |
| Furqat | 1724,2 | 100,7 |
| Yozyovon | 2749,1 | 100,1 |

Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 %ni tashkil etib, 209,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3053,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 2,9 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 2166,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 71,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Qo'qon shahar (100,0%), Oltiariq t(99,8%) va Dang'ara t (99,6%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Bog`dod tumani (75,8%) va Farg`ona (61,5%) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | Jami (mlrd. so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|-------------------------|---|------------------------------------|--|-------------------------------------|--|
| Farg`ona viloyati | 3 053,2 | 102,9 | 886,5 | 103,7 | 2 166,7 | 102,6 |
| shaharlar | | | | | | |
| Farg`ona | 1312,7 | 120,9 | 806,9 | 123,2 | 505,8 | 117,3 |
| Qo`qon | 506,7 | 98,9 | 41,1 | 86,0 | 465,6 | 100,2 |
| Quvasoy | 27,0 | 102,8 | 0,0 | 0,0 | 27,0 | 105,9 |
| Marg`ilon | 331,9 | 120,6 | 1,7 | 38,6 | 330,3 | 12,2 |
| tumanlar | | | | | | |
| Oltiariq | 195,9 | 86,9 | 0,4 | 131,1 | 195,5 | 86,8 |
| Qo`shtepa | 5,2 | 86,3 | 0,0 | 0,0 | 5,2 | 86,3 |
| Bag`dod | 36,0 | 48,1 | 27,3 | 41,7 | 8,7 | 92,1 |
| Buvayda | 54,0 | 81,0 | 0,0 | 0,0 | 54,0 | 81,0 |
| Beshariq | 14,8 | 86,2 | 0,0 | 0,0 | 14,8 | 86,2 |
| Quva | 71,8 | 79,0 | 0,0 | 0,0 | 71,8 | 79,0 |
| Uchko`prik | 53,6 | 105,5 | 0,7 | 83,7 | 52,9 | 105,9 |
| Rishton | 20,8 | 120,1 | 0,5 | 31,5 | 20,3 | 128,3 |
| So`x | 1,8 | 72,0 | 0,4 | 31,1 | 1,4 | 114,4 |
| Toshloq | 192,1 | 98,1 | 2,0 | 0,0 | 190,1 | 97,1 |
| O`zbekiston | 34,7 | 88,1 | 0,3 | 29,6 | 34,4 | 89,6 |
| Farg`ona t | 42,5 | 37,7 | 4,7 | 6,2 | 37,8 | 101,4 |
| Dang`ara | 96,8 | 82,5 | 0,3 | 58,9 | 96,5 | 82,6 |
| Furqat | 24,3 | 88,0 | 0,0 | 0,0 | 24,3 | 88,0 |
| Yozyovon | 30,4 | 143,2 | 0,3 | 57,4 | 30,1 | 145,2 |

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Farg`ona t (37,7 %), Bog`dod (48,1%), So`x (72,0%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18